

Qudrat Bozorovich Xudayberganov

Tel:268-04-84, +99893-549-28-37

*Toshkent Oliy Umumqo ‘shin Qo ‘mondonlik bilim yurti
“Gumanitar, ijtimoiy – iqtisodiy fanlar va shaxsiy
tarkib bilan ishlarni tashkillashtirish” kafedrasи
boshlig‘i vvb*

Amir Temur sultanatida xavfsizlikni ta’minlashda razvedka xizmatining o‘rnvi va roli

Аннотация. В статье анализируются роль и значения разведки в обеспечении безопасности империи Амира Темура. А также, освещается пути и методы, способы применения и использование службы разведки основывая на исторические и научные источники.

Ключевые слова: Амир Темур, разведка, контрразведка, безопасность, военное искусство, торговцы, туристы.

Annotatsiya. Maqolada Amir Temur sultanatida xavfsizlikni ta’minlashda razvedka xizmatining o‘rnvi va roli ilmiy jihatlari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada razvedka xizmatini tashkil etish, uni qo‘llash usul va uslublarini aks etishi tarixiy, ilmiy manbalarga asoslangan holda yoritilgan.

Tayanch so‘zlar: Amir Temur, razvedka, kontrrazvedka, sultanat, xavfsizlik, harbiy san’at, savdogar, sayyoh

O‘tmishdan ma’lumki, buyuk Sohibqiron Amir Temur dunyo tarixida mukammal muntazam armiya tuzish va boshqarishda o‘ziga xos uslubni qo‘llagan. Ayniqsa, Amir Temur harbiy harakatlarni amalga oshirish jarayonda falanga taktikasini qo‘llash orqali jangovar harakatlarni amalga oshirishda razvedka xizmatiga alohida e’tibor qaratgan. Xususan, Amir Temur o‘zining “Tuzuklari”da oltinchi toifa ishonchli, to‘g‘ri e’tiqodli oqilxiradmand kishilarkim, davlat sirlarini ularga ochib, sultanat ishlari bo‘yicha ulardin maslahat olishimga loyiq edilar. Bu toifa kishilar bilan sirdoshlik qilib, o‘z maxfiy ishlarim va pinhoniy sir-asrorlarimni o‘shalarga topshirdim”¹-, deya alohida ta’kidlab o‘tgan. Shu o‘rinda, Amir Temur sultanatidagi maxfiy xizmati to‘g‘risidagi ko‘pgina qimmatli ma’lumotlar uning zamondoshi Ibn Arabshoh tomonidan bizgacha yetib kelgan. Ibn Arabshoh tomonidan bildirilgan fikrlar ayniqsa, diqqatga molikdir. Ibn Arabshoh jumladan: “Amir Temur razvedka xizmati haqida fikrini davom ettirar ekan: “Razvedkachilar - chor atrofda bo‘layotgan hodisalarini va ularning xabarlarini Temurga yetkazib, manzilu shaharlarni tavsiflaydilar. Ularning tekis va notekis joylarining suratlarini keltirib, uylari va daryolari o‘rnini chizib ko‘rsatardilar, shular orasida u joylarning yaqin yo uzoq, tor yoki kengligini, shaharlar va qishloqlarning nomlarini, manzil va panohjoylar nomlarini, har bir

¹Темур Тузуклари. Халкаро Амир Темур жамгармаси. “Шарқ” НМАК. Т.: 2005 йил. Б-92.

joyning avliyo boshliqlari, amirlari, ulug‘lari, fozillari, boylariyu faqirlarini, ularning har bir ism va laqabini, shuhrati va nasabini, hunari va vositalarini bayon qilardilar. Natijada, Temur o‘z fikri bilan shu narsalarni yaqqol ko‘rib, tafakkuri natijasida o‘z erlari bilan xorij joylar ustidan ham tasarruf yuritardi”, - deya alohida aytib o‘tgan. Ibn Arabshoh o‘z fikrida davom etib: “Amir Temur razvedkachilari axborotlari xususida so‘z yuritib shunday xulosaga keladi. Bu xukmda ular kamdan-kam xato qiladilar. Ibn Arabshohning yana bir igrori ham diqqatga sazovar. “U (odamlarni) chalg‘itish qobiliyatlariga ega bo‘lib, harakatlarida shiddatlik (asari) bor edi. Agar uni boshiga bexosdan bir mushkul ish tushsa, u o‘zini go‘yo ushbu ishkalga marg‘ub ko‘rsatib (aslida) uni daf qilishga kirishadi. Uning (odamlarini) chalkashtirishdin bir misol shuki, agar unda biror makonga nisbatan xohish to‘g‘ilsa yoki biron qavm maydoniga tushishni istab qolsa, hufiyalik va bekinishga yuz qo‘yib, qalbaki harakat va o‘zini go‘llikka solishni talab etardi”², deya ta’kidlab o‘tgan. Shu tariqa, Sohibqiron o‘z sultanati xavfsizligini ta’minalash uchun sultanatning barcha tomonlariga o‘zining razvedkachilarini qo‘ygan edi. Razvedkachilar bir vaqtning o‘zida nafaqat Qohirada, balki Damashqda ham faoliyat olib borgan. Razvedkachilarning bir qismi o‘ziga yuklatilgan muhim topshiriq va vazifalarni a’lo darajada ado etib Amir Temurga kerakli bo‘lgan ma’lumotlarni yetkazib turgan. Belgilangan muhim topshiriq va vazifalarni bajarish jarayonida shu vaqtning o‘zida boshqa (aksariyat holatlarda razvedkachilar bir birini tanimagan) bir razvedkachining o‘rnida boshqa razvedkachi ish olib borgan. Amir Temur razvedka va kontrrazvedka naqadar katta ahamiyatga ega ekanligini avlodlariga o‘z “Tuzuklari”da aniq hayotiy misollar bilan tushuntirgan: “Davlat ishida talay olchoq yomon odamlar bordirki, davlat dushmanlarini yaxshilab uning jon fidolarini turli makr-hiyllalar bilan xarob qiladilar”³. Natijada, davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan muhim vazifa va topshiriqlarni bajarish jarayonida muntazam uzviylik ta’milangan.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Amir Temur sultanat xavfsizligini ta’minalashda eng avvalo, razvedkachilarni tanlashda juda ehtiyojkorlik bilan ish ko‘rgan. Ishonchli, to‘g‘ri e’tiqodli oqil kishilar toifasiga davlatning eng maxfiy sirlarini ishonib, muammolar yechimini topishda ular xizmatiga tayangan⁴. Aynan, mazkur soha vakillari dunyodagi sodir bo‘layotgan har xil yangiliklar, xususan, adolatsizlik, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqealardan doimiy ravishda Amir Temurni xabardor etib turgan. O‘z navbatida, razvedkachilarning orasida turli yoshdagilari mavjud bo‘lib, har biriga o‘zini darajasida muhim vazifa va topshiriqlar yuklatilgan. Bu haqda Sohibqiron o‘zining “tuzuklari”da alohida to‘xtalib o‘tilgan. Jumladan, razvedka va kontrrazvedka Amir Temur sultanatida xavfsizlikni ta’minalashda davlat siyosatining bosh bo‘g‘ini ekanligi “Temur tuzuklari”dagi “Mulki mamlakat, sipohu raiyat ahvolidan xabardor va ogoh bo‘lib turish tuzugi”da alohida qayd etilgan: **“Har yerda, viloyat u shahar va o‘rdada kundalik voqealarni yozuvchilarni tayin qilinsinki, hokimlar, raiyat sipoh o‘z**

² Ҳамдам Содиков. Амир Темур салнатанида хавфсизлик хизмати. Т.: “ARTFLEX”. -2010йил. Б-9.

³ Ҳамдам Содиков. Амир Темур салнатанида хавфсизлик хизмати. Т.: “ARTFLEX”. -2010йил. Б-11.

⁴ Бобир Бердиев. “Темур тузуклари”да жамият ижтимоий қатламларининг акс этиши. Ижтимоий фикр-инсон хукуклари. 2013 йил № 3. Б-115.

lashkari va yot-lashkarining xatti-harakati haqida meni habardor qilsin. Atrofdan kirgan-chiqqan yot kishilar, har mamlakatdan kelgan karvonlar va hukmdorlik haqidagi xabarlar, qo'shni podsholar, ularning gaplari, ishlari va uzoq o'lkalarda bo'lib, mening dargohimda yuzlangan ulamo, fuzalo haqidagi batafsil xabarlarni rostlik, to'g'rilik bilan menga yozib tursinlar. ...Amr qildimki, mingta tezyurar tuya mingan, mingta ot mingan yelib-yuguruvchi kishini chopqunchi, ming nafar tezyurar piyodani etib tayinlasinlarki, turli mamlakatlar, sarhadlarning xabarlarini, qo'shni hukmdorlarning maqsadlari va niyatlarini bilib huzurimga kelib, habar qilsinlar, toki biron voqeа, kor-hol yuz bermasdan burun chora va ilojini qilaylik. Va yana amr etdimki, ushbu xabarlarni kunma-kun, haftama-hafta, oyma-oy mening arzimga yetkazib tursinlar⁵, - deya ko'rsatib o'tilgan. Binobarin, mana shu jumlalardan anglash mumkinki, Sohibqiron Amir Temur davlatida razvedka xizmati sultanat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Xususan, xorijlik muarixlar Amir Temur sultanatida xavfsizlikni ta'minlash maqsadida razvedka xizmati yuqori darajada tashkil etilganligini alohida ta'kidlab o'tishgan.

Amir Temur o'z sultanatidagi xavfsizlik, barqarorlik, tinchlikni saqlash maqsadida dunyoning turli mamlakatlarida savdogar, sayyoх, qalandar, munajjim, darvesh, folbinu jodugar niqobi ostida faoliyat ko'rsatgan razvedkachilardan yuksak bilim va sezgirlik talab etilgan. Xususan, razvedka borasida chol va kampirlar xizmatidan foydalanilgan bo'lib, ular o'zining o'ta ziyrakligi bilan ajralib turgan. Ayniqsa, chol va kampirlar fuqarolar bilan qiladigan muomalasida o'z hikmati bahsida ikki muxolifni bir-biriga biriktirish yoki ikki dushmanni bir-biriga do'st qiladigan darajada uddaburon kishilar sifatida taassurot uyg'otishgan. Sohibqiron yurishga jo'nashdan ancha avval dushmanning qurolli kuchlari mudofaa inshoatlari, u yerdagi ichki vaziyat kabilar haqida aniq va to'la ma'lumotga ega bo'lish maqsadida uning yurti va qarorgohiga o'z ayg'oqchi (xabargir, jous)larini peshma-pesh yuborib turgan. G'anim to'g'risida zarur ma'lumotlarga ega bo'lgandan so'nggina yurishga taraddud ko'rilgan⁶. Ayniqsa, razvedka xizmati bilan shug'llanishda savdogarlarning tutgan o'rni alohida ahamiyat kasb etgan. Boisi, savdogarlar savdo aloqalarini olib borish bahonasida qo'shni mamlakatlardagi siyosiy vaziyat to'g'risida qimmatli ma'lumotlardan xabardor etib turgan. Shu tariqa, Amir Temur sultanatida razvedka xizmati mukammal darajada tashkil etilgan. Shu bilan bir qatorda, Sohibqiron sultanatida tashqi tahdidlarni o'z vaqtida anglash va aniqlash uchun tashqi razvedka xizmati ham a'lo darajada tashkil etilganligini ta'kidlash o'rnlidir. Xususan, mazkur sohaga oid xizmat vakillari sultanat tashqarisida yirik savdogar, chakanafurush, dorboz, hunarmand, qalandar, polvon, munajjim, darvish, tolib, dengizchi, sayyoх, meshkobchi, etikdo'z, niqoblari ostida turli mamlakatlarda faoliyat ko'rsatishgan. Mazkur soha vakillari sultanat tashqarisida shaharlar, qishloqlar, yo'llar, tog'u toshlar, suvlar, har bir joyning aholisi, boshliqlari, ulug'lari, amirlari, fozillari, shariflari, boyu kambag'allari to'g'risida aniq har tomonlama mukammal

⁵ Темур Тузуклари. Халқаро Амир Темур жамғармаси. “Шарқ” 2005 йил НМАК. Т.: Б-117.

⁶ Ўзбекистонда харбий иш тарихидан “Шарқ” МАКБ. Тошкент. Б-101.

ma'lumotlar yig'ish bilan bir qatorda ushbu hududlarni aks etuvchi haritalarni saltanat poytaxti Samarqandga muntazam yuborib turishgan. Natijada, Amir Temur razvedkachilarning o'ta qimmatli bo'lgan ma'lumotlarga tayangan holda o'zining harbiy yurishlarini nihoyatda puxtalik bilan amalga oshirib, katta-katta zafarlarni ko'lga kiritgan. Temur huddi Chingixzon singari savdogarlar va karvonboshilarni turli tovarlar bilan Xitoy, Hindiston, Misr, Arabiston kabi mamlakatlarga va xatto Yevropa davlatlariga ham yuborib turgan. Karvonlar qaytib kelgandan so'ng, savdogarlar sirasidan tayinlangan va darveshlar libosida jo'natilgan xabargirlar o'z kuzatishlari asosida xalqining hayoti axloqiy, odatlari haqida ma'lumot bergenlar. Ular xususan, podshoxlar bilan ularning fuqarolari o'rtasidagi munosabatlar qandayligini bilib olishlari nihoyatda zarur bo'lgan⁷. Aksariyat holatlarda biron bir mamlakat to'g'risidagi o'ta muhim qimmatli ma'lumotlar ba'zan savdogarlar orqali olingan. Zero, Amir Temurning razvedka xizmatiga alohida e'tibor qaratishdan asosiy maqsad eng avvalo, davlatda tinchlik, barqarorlikni saqlash, mamlakatni har qanday ichki va tashqi xavfdan asrash muhim ahamiyat kasb etgan. O'tmishda dono siyosatchiadolatli hukmdor sifatida nom qozongan Amir Temur o'zining shaxsiy dovyurakligi, sahiyligi, odamlarni ajrata bilishi va o'ziga yordamchi tanlashda noyob hislatlarga ega bo'lib, bu borada kamdan kam adashgan. Amir Temur turli o'lkalardan kelgan sayyo Hatchilarga savdogarlarga, karvonboshilarga xomiylik qilgan. Ularga har qanday yordam ko'rsatilgan va shu asnoda ular ko'rgan davlatlardagi ahvol ham bilib olingan. Amir Temur turli tovarlarning olib kelinishi va olib ketilishi, xorijliklarning mamlaktga kirishi va chiqib ketishi, Amir Temur huzuriga kelishini istagan turli olimlar haqida aniq ma'lumotlar berib turishlari lozim bo'lgan alohida ishonchli lavozimdagи amaldorlarga ega bo'lgan. Ular xorijiy podsholarning Amir Temurga bo'lgan munosabati va niyatlarini bilishlari, bu ma'lumotlarni unga tez va aniq qilib yetkazishlari lozim edi. Agar bu ma'lumotlar kamlik qilsa, u holda Amir Temur elchilarни jo`natgan. Ular Amir Temurning yurishlaridan oldin kerakli ma'lumotalarni berib turishlari zarur edi. Ba'zi hollarda u bu maqsadlar uchun darveshlardan foydalanardi⁸. Aynan, Amir Temur saltanatdagi tinchlik, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash maqsadida o'rnatilgan razvedkaning o'mni va roli naqadar yuqori darajadagi qattiq tartib va intizom uning harbiy sohadagi muvaffaqiyatlarining yutug'i ekanligini namoyon etadi. Bu haqda Sultoniy episkopi o'zining esdaliklarida alohida e'tibor qaratib o'tgan: "Dunyoning boshqa biror-bir mamlakatida Temurbek qo'shinida joriy etilgan tartib va intizomni uchratmaysiz. Uning harbiy lashkarboshilari o'zi bosh bo'lgan lashkarning soni bilan farqlanadi. Masalan, o'n kishidan ortiq askarga boshchilik qiladiganlarni - o'n boshi: yuz kishidan ortiq askarlarga-yuz boshi, mingdan ortiq navkarlarga ming boshi va o'n ming nafardan ortiq jangchilarga bosh bo'lgan sarkardalar tumanboshi deb ataladi. Bu qo'shinda mustahkam intizom o'rnatilgan: boshliqlarning topshiriqlari so'zsiz bajarilishi shart. Mabodo mingboshi o'z askariga "o'tga kir" desa, u o'ylab o'tirmasdan o'zini o'tga otadi. Basharti

⁷ Ўзбекистонда харбий иш тарихидан "Шарқ" МАКБ. Тошкент. 2010йил. Б-101.

⁸ Ўзбекистонда харбий иш тарихидан "Шарқ" МАКБ. Тошкент. 2010йил. Б-101-102.

jangchilar buyruqdan bo‘yin tovlash, uni bajarmaslik yoki sustkashlik qattiq jazolanishini yaxshi biladilar”⁹, deya alohida ta’kidlab o‘tgan edi. Shuning uchun ham Amir Temur o‘zining ulkan sultanatini muvaffaqiyat bilan odilona boshqargan. Zero, Amir Temur tomonidan o`sha davrda puxta tashkil etilgan razvedka xizmati zamirida eng avvalo, sultanatda muntazam tinchlik, xotirjamlik, barqarorlikni ta’minlash orqali mamlakatda osuda hayotning hukm surishida muhim o‘rin tutganligini alohida qayd etish lozim.

Annotation. The article analyzes the role and significance of intelligence in the security of the empire of Amir Temur. Also, highlights the ways and methods, methods of use and the use of intelligence services based on historical and scientific sources.

Keywords: Amir Temur, intelligence service, counter-intelligence, security, military art, merchants, tourists.

⁹ Марсель Брион. Мен ким, Сохибкирон-Жаҳонгир Темур – Т., “Янги аср авлоди”. 2014. – Б. 21-22.